

“Avesto” kitobining yosh avlod kamolotidagi o‘rni

Diyora Dilshod-qizi Abdukarimova
Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Maqolada butun jahon madaniyat va ma’rifatining eng qadimgi noyob yodgorligi zardushtiylik e’tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi “Avesto” kitobidagi ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalar, tarbiyaviy jarayonlar, jamiyatga sog‘lom avlodni shakllantirib berish va ularda ezgulik, halollik, mehnatsevarlik va poklik kabi fazilatlarining yosh avlod kamolotidagi o‘rni, shuningdek “Axuramazda” va “Ahriman”lar o‘rtasidagi kurashni muhim ahamiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Avesto, zardushtiylik, ta’lim, tarbiya, ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, poklik, sog‘lom avlod

The role of the book “Avesta” in the development of the younger generation

Diyara Dilshod-kizi Abdukarimova
Scientific advisor: M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: The article highlights the ideas on education and upbringing in the book “Avesta”, the sacred book of the followers of the Zoroastrian faith, the oldest unique monument of world culture and enlightenment, educational processes, the formation of a healthy generation for society, and the role of such qualities as goodness, honesty, hard work and purity in them in the development of the younger generation, as well as the important significance of the struggle between “Ahuramazda” and “Ahriman”.

Keywords: Avesta, Zoroastrianism, education, upbringing, goodness, honesty, hard work, purity, healthy generation

Zardushtiylik dinining shakllanishiga asos bo‘lgan nazariy manbalar majmui bu “Avesto” muqaddas kitobi hisoblanadi. “Avesto” insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etganligi sababli ham butun jahon madaniyatining, xususan Markaziy Osiyoning eng ko‘zga tashlanadigon yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht (boshqa tillarda Zardushtiylik, Zoroast)

nomlari bilan ham ataladi. Uning tug'ilgan joyi no'malum hisoblanadi. "Avesto" milloddan avvalgi IX - VIII asrlarda qadimgi Xorazm diyorida ezgulik dini sifatida vujudga keladi, uning nomi "Hayot yōriqnomasi" ma'nosini anglatadi. Ba'zi manbalarda "Avesto" (parfiyoncha: apastak - matn, ko'pincha "Zend-Avesto", ya'ni tasvir qilingan matn) deb ataladi.

Tadqiqotchi olimlarning yillar davomida olib borgan chuqur ilmiy izlanishlari najisining asosiga ko'ra, "Avesto" O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmda miloddan avvalgi 1000 yillikning birinchi yarmida vujudga kelgan. Bunga isbot sifatida "Avesto"da keltirilgan geografik ma'lumotlar ham "Avesto"ning kelib chiqishi Xorazmga borib taqalishini tasdiqlaydi. Masalan, Xudo yaratgan yerlardan so'z borar ekan, boyligi va go'zalligi bilan qadimgi Xorazm, Gava (Sug'd), Marg'iyona (Marv) va Baqtriya (Balx) birinchi bo'lib tilga olinadi. Shuningdek, Orol dengizi (Vorukasha yoki Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) ham tavsiflanadi.

"Avesto"dagi xalqning dastlabki vatanlari Sirdaryo va Amudaryo etaklari hamda Zarafshon vodiysi hududida joylashgani qayd etilgan. "Avesto" yillar davomida jadal suratlarda rivoj topib yanada takomillashib kelgan, bunda tashqari, unda keltirilgan eng qadimgi ma'lumotlar miloddan avvalgi 2000 yillik oxiri - 1000 yillik boshiga taalluqli bo'lib, og'zaki ravishda avloddan-avlodga yetib kelgan. Keyinchalik esa tarkibiga turli diniy urf-odatlar, axloqiy va huquqiy qoidalar hamda boshqa elementlar qo'shib borilgan [3].

Tarixchi Mas'udiy ma'lumotiga ko'ra, podsho Doro ibn Doro xazinasida "Avesto"ning 12 ming oltin taxtaga bitilgan nusxasi bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy va Balxiyning "Forsnoma"sida esa u 12 ming mol terisiga oltin suvi bilan yozilgan 32 kitobdan iborat ekani qayd etiladi. Makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 334-329-yillarda Markaziy Osiyoni zabt etganida "Avesto"ning ko'plab qismlari yo'q qilingan, biroq uning tibbiyot, falakiyot, falsafa va adabiyotga oid bo'limlari yunon tiliga tarjima qilingan.

"Avesto" sof diniy kitob hisoblanmaydi, unda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma'naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va qadriyatlar haqida ma'lumot beradi. Asarda Miloddan avvalgi XIII asrdan to milodning IV asrigacha bo'lgan davrdagi tarixiy voqealar aks etgan. O'lis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qancha-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zi bugun biz yashab turgan ko'hna o'lkada qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. Unda ma'naviy yuksaklikka da'vat etish, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g'oyalar, ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o'z ifodasini topgan.

"Bu nodir kitob bundan 300 yil muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrgo'zaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir" I.A.Karimov.

Ushbu din yagona xudo - Ahura Mazdaga sig'inishgan. Uning ismi avestoy tilidagi "Ahura" (hukmdor, ustun) va "Mazda" (donolik, aql) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi "Donolikning hukmdori" yoki "Aql-u hikmatga ega Xudo" degan tushunchani bildiradi. Olov poklik, yorug'lik va Ahuramazdaning timsoli hisoblanib, ibodatxonalar markazida doimiy olov (oila o'chog'i) yonib turgan. Muqaddas elementlari: olov, suv, tuproq va havo muqaddas hisoblangan, olov esa ezgulikning ramzi sifatida ulug'langan. Tabiat hodisalari: olov, suv, yer va havo muqaddas sanagan va ularni ifloslantirish gunoh hisoblangan.

Yer, suv va havoni toza tutish, tabiatni asrash diniy burch sanalgan. Bu jumlar nega "Avestvo" nodir kitob ekanligi va nega 2800 yildan beri muqadas hisoblanib kelishiga yaqqol misol sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bu unsrlardagi suv va havo ifloslantirmaslik hozirgi zamonda ham dolzarb muammolarda biri hisoblanadi, ulardan oqilona foydalanish va ularni asrash kerak. Yosh avlodga ularni qanday asrab avaylash, ulardan tejamkorona foydalanishni o'rgatish, bu kelajakda ekologiyani yana yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

Zardushtiylik dini dualizm tamoyiliga asoslanib, ruhiy va moddiy hayotning uyg'unligini tan oladi. Unga ko'ra, olam doimiy qarama-qarshilikka asoslangan: yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va qullik kabi ziddiyatlar abadiy kurash qiladi. Bu kurash yaxshilik timsoli Axura Mazda bilan yovuzlik timsoli Axriman o'rtasidagi doimiy qarama-qarshilik sifatida ifodalanadi va hech qachon to'xtamaydi "Avesto"da zardushtiylikning eng muhim axloqiy g'oyasi bunday ifoda topgan.

Agar ezgu borliqni yaratgan Axura Mazda qabohat dunyosini yaratuvchi Axriman ustidan g'olib bo'lib, insoniyat abadiy baxtu saodatga erishsin desang, ezgu fikr yurgiz, ezgu so'znigina so'zla, ezgu ishlar bilan band bo'l. Hayotida shu uch qoidaga amal qilgan odam qabohat, yovuzlik yo'liga og'ib ketmaydi. Bu esa eng oddiy hayotiy maqsad - haq yo'ldagi yagona maqsad bo'lmog'i kerak. Zardushtiylikda inson erkin tanlash orqali ezgulik yoki qabohat tomonida turishi mumkin, deyiladi. Darhaqiqat, ezgu niyatli inson har sohada muvaffaqiyatga erisha oladi, o'zi qo'yg'an, intilgan ezgu maqsadlarini amalga oshira oladi. Bu uch qoidani yosh avlod ruhiga singdirish, ularni kelajagini yanda porloq b'olishi taminlay oladi.

"Avesto" ta'limotida axloqiy-falsafiy qarashlarning markazida ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal birligidan iborat muqaddas triada turadi. Mazkur uchlik inson ruhiy poklanishi va ma'naviy kamolotining asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Ta'limotga ko'ra, shaxs ushbu tamoyillarga izchil amal qilgan taqdirdagina e'tiqodda

sobit, amalda halol va soʻzida rost boʻlib, ilohiy inoyatga sazovor komil inson maqomiga erishadi.

“Avesto” matnlarida ezgulikni ifodalovchi hikmatlar mazmunan ikki asosiy guruhga ajratiladi. Birinchi guruh - taʼlimiy-axloqiy nasihatlar boʻlib, ular kommunikativ axloq meʼyorlarini belgilaydi. Bu oʻgitlarda tinglash madaniyati, yolgʻon va yovuz nutqdan tiyilish, nutqiy masʼuliyat, vazminlik va sukutning qadri kabi jihatlar alohida urgʻulanadi. Ikkinchi guruh esa umumlashgan axloqiy xulosalardan iborat boʻlib, unda rostgoʻylik, haqqoʻylik, vazminlik va nutq odobining ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatidagi maqomi mustahkamlanadi.

Asarda insoniy fazilatlar tizimi ichida ishonch, eʼtiqod va farosat tayanch kategoriyalar sifatida talqin etiladi. Ishonch shaxsning ichki irodaviy safarbarligini kuchaytiruvchi omil sifatida koʻrilsa, eʼtiqod uni ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi tanlovda yoʻnaltiruvchi mezon vazifasini bajaradi. Farosat esa voqelikni teran idrok etish, zararli mayl va illatlardan oʻzini himoya qilishga xizmat qiluvchi intellektual-axloqiy sifat sifatida baholanadi [4].

Ushbu fazilatlarning chinakam samaradorligi aql va bilimning uygʻunlashuvi, boylikning saxovat bilan qoʻshilishi hamda ezgu soʻzning ezgu amal bilan mustahkamlanishi orqali taʼminlanishi taʼkidlanadi.

“Avesto”da axloqiy tarbiya shaxs kamolotiga yoʻnaltirilgan uzluksiz va tizimli ijodiy jarayon sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda taʼlim shaxsni ulugʻlovchi va rivojlantiruvchi omil, xulq - xarakter shakllanishining asosi, aql esa ruhiy poklikni taʼminlovchi yetakchi kuch sifatida eʼtirof etiladi. Shuningdek, har bir ijobiy sifat oʻzining inkor etuvchi salbiy jihatlaridan xoli boʻlgandagina mukammal fazilat darajasiga koʻtarilishi mumkinligi konseptual tarzda asoslanadi.

Qadimdan odamlarning dono va bagʻoyat goʻzal hikmatli soʻzlari mavjud - ulardan oʻrganmogʻimiz darkor (Geredot), “Turli - tuman tarbiyaviy hikoyatlar va hikmatli soʻzlarni toʻplash - tengsiz davlatdir” (I. Gyote)[2]. Bu fikrlar, tabiiyki, Zardusht pandlariga ham talluqlidir.

Xalq donishmandligining ifodasi “Avesto” hikmatlarining koʻpchiligi allaqachon maqollarga ketgan va davrlar oʻtishi bilan ularning turli variantlari vujudga kelgan [1].

Umuman olganda, “Avesto”dagi axloqiy qarashlar qadimgi maʼnaviy tafakkurning muhim qatlamini tashkil etib, ular insonni ezgulik, rostlik va maʼnaviy poklik sari yoʻnaltiruvchi universal qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Mazkur hikmatlar tarixiy ildizlarga ega boʻlishiga qaramay, ularning tarbiyaviy va falsafiy ahamiyati hozirgi davrda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. *Science and Education*, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. *Journal of Institutional Research South East Asia*, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. *Science and Education*, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. *Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology*, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o 'tishda axborot xavfsizligi. *Science and Education*, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 11-15.
11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. *Nova. Pub*, 1-128.

15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. Science and Education, 4(12), 321-324.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78-83.
20. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 410-415.
21. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 97-103.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.
23. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique.-2022.-S, 7128-7131.
24. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 216-222.
25. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.
26. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. International Journal of Human Computing Studies, 5(3), 15-17.